ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -6

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 6

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

ANDIJON SHAHRIDA YO‘LOVCHI OQIMI VA TRANSPORT SIG‘IMI O‘RTASIDAGI MUVOZANATNI TAHLIL QILISH

Nasirov Ilxam Zakirovich
Andijon davlat texnika instituti Transport logistikasi kafedrasi professori
Yusufaliyev Bekzodbek Abdukarim o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti Transport logistikasi yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
E-mail: bekzod.yusuf00@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon shahri jamoat transporti tizimida yo‘lovchi oqimi va transport sig‘imi o‘rtasidagi muvozanat tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida SHI-1 yo‘nalishining ATTO elektron to‘lov tizimi ma'lumotlari asosida yo‘lovchilarning haqiqiy ehtiyoji o‘rganildi. Tahlil natijalari "Brutto-shartnoma" doirasida yo‘naltirilgan avtobuslar sig‘imi bilan amaldagi yo‘lovchi oqimi o‘rtasidagi jiddiy tafovutlarni, shuningdek, avtobuslarning keragidan ko‘proq ekanligini ko‘rsatib berdi. Xulosa sifatida, yo‘lovchilar ehtiyojidan kelib chiqib harakat jadvallarini qayta ko‘rib chiqish va tarmoqni analitik boshqarish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Jamoat transporti, yo‘lovchi oqimi tahlili, transport sig‘imi, Brutto-shartnoma, ATTO tranzaksiyalari, bekat, ma’lumotlar, model.

Abstract. This article analyzes the balance between passenger flow and transport capacity in the public transport system of Andijan city. As part of the study, the actual passenger needs of the SHI-1 route were studied based on data from the ATTO electronic payment system. The results of the analysis revealed significant discrepancies between the capacity of buses directed under the "Gross Contract" and the actual passenger flow, as well as an excess of buses. In conclusion, recommendations were developed for revising traffic schedules and analytical management of the network based on passenger needs.

Keywords: Public transport, passenger flow analysis, transport capacity, gross contract, ATTO transactions, station, data, model.

Аннотация. В данной статье анализируется баланс между пассажиропотоком и транспортной вместимостью в системе общественного транспорта города Андижана. В рамках исследования была изучена реальная потребность пассажиров на маршруте ШИ-1 на основе данных электронной платежной системы ATTO. Результаты анализа показали существенные расхождения между вместимостью автобусов, направленных в рамках "Брутто-контракта," и фактическим пассажиропотоком, а также превышение потребности в автобусах. В заключение были разработаны рекомендации по пересмотру расписаний движения и аналитическому управлению сетью с учетом потребностей пассажиров.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: Общественный транспорт, анализ пассажиропотока, транспортная вместимость, брутто-контракт, транзакции ATTO, станция, данные, модель.

KIRISH.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan hududlarida jamoat transporti tizimini boshqarishda eng asosiy muammolardan biri — bu taklif (transport vositalari soni) va talab (yo‘lovchilar oqimi) o‘rtasidagi aniq muvozanatni ta'minlash hisoblanadi. Shahar aholisining o‘sib borishi mavjud transport infratuzilmasiga bo‘lgan bosimni oshirib, yo‘nalishlarda avtobuslarning qatnov intervallari buzilishiga va xizmat ko‘rsatish sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, jamoat transporti tizimlarining qulayligi nafaqat avtobuslar sonining ko‘pligi bilan, balki ularning yo‘lovchi oqimiga qanchalik mos taqsimlangani bilan o‘lchanadi [5].

O‘zbekiston Respublikasida jamoat transportini isloh qilishning yangi bosqichi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-sonli qarori [1] asosida sohani moliyalashtirishning "Brutto-shartnoma" tizimiga o‘tilishi muhim burilish yasadi. Ushbu mexanizm tashuvchilarning daromadini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bajarilgan qatnovlar soniga bog‘ladi. Biroq, bu tizim muvaffaqiyatli ishlashi uchun harakat tarkibi sig‘imi real yo‘lovchilar ehtiyojiga qat'iy mos kelishi talab etiladi. Aks holda, yo‘nalishlarda keragidan ortiqcha bo‘sh qatnovlar yoki, aksincha, tig‘iz soatlarda yo‘lovchilar sig‘may qolishi kabi holatlar yuzaga keladi.

Andijon shahri transport tarmog‘i (xususan, SHI-1 yo‘nalishi) misolida kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, qog‘ozda tasdiqlangan harakat jadvallari bilan amaliyotdagi holat o‘rtasida farqlar mavjud. Avtobuslarning oraliq intervallar 10-15 daqiqagacha cho‘zilib ketmoqda. Bu esa xizmat ko‘rsatish sifatini tushirib yuboruvchi asosiy omillardan biridir [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Shahar jamoat transporti tizimining samaradorligi va iqtisodiy barqarorligi yo‘lovchilarning tashishga bo‘lgan haqiqiy talabi hamda yo‘nalishga chiqarilgan transport vositalarining haqiqiy tashish qobiliyati o‘rtasidagi qat'iy muvozanatga bog‘liq. Agar ushbu muvozanat buzilsa, tizimda ikkita ziddiyatli holat yuzaga keladi:

1. Oqimning sig‘imdan yuqoriligi (Q > W): Bekatlarda yo‘lovchilarning to‘planib qolishi, avtobuslarning me'yordan ortiq to‘lishi (konfort darajasining yo‘qolishi) va natijada aholining jamoat transportidan voz kechib, shaxsiy avtomobil yoki yo‘nalishli taksilarga o‘tib ketishi.

ISSN 3030-3907

2. Sig‘imning oqimdan yuqoriligi (W > Q): Yo‘nalishda ortiqcha transport vositalarining harakatlanishi, bo‘sh qatnovlar sonining ortishi va ekspluatatsion xarajatlarning qoplanmasligi (iqtisodiy zararning o‘sishi).

Andijon shahri sharoitida (xususan tadqiq etilayotgan yo‘nalish misolida) bu muvozanatni matematik jihatdan to‘g‘ri baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar kompleks tahlil qilinadi:

Yo‘lovchi oqimining xarakteristikasi va notekislik koeffitsiyentlari

Jamoat transportida yo‘lovchi oqimi (Q) doimiy emas, u vaqt va masofa bo‘ylab o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Tizimni modellashtirishda oqimning ikkita asosiy notekisligi hisobga olinadi:

- Vaqt bo‘yicha notekislik koeffitsiyenti (η_{vaqt}): Kunning ma'lum bir soatlarida (ayniqsa 07:30–09:00 va 17:00–18:30) oqimning keskin ortishi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$\eta_{vaqt}=\frac{Q_{max}}{Q_{o'rt}}$$

- Yo‘nalish uzunligi bo‘yicha notekislik koeffitsiyenti (η_{hudud}): Marshrutning markaziy qismlarida odam ko‘p tushib-chiqishi, chekka qismlarida esa kamayishi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$\eta_{hudud}=\frac{Q_{max.qism}}{Q_{o'rt.qism}}$$

Hisob-kitoblarda doimo tizimning eng og‘ir nuqtasini ko‘rsatuvchi "pik soat"dagi maksimal yo‘lovchi oqimi (Q_{max}) asos qilib olinadi. Andijonda bu ma'lumotlar ATTO tranzaksiyalari hamda vizual sanash usullari orqali shakllantiriladi.

Harakat tarkibining tashish qobiliyati (W)

Bir soat davomida marshrutdan o‘tuvchi yo‘lovchilarni to‘liq va qulay tashish qobiliyati (W_{soat}) quyidagi formula asosida aniqlanadi[9]:

$$W_{soat}=\frac{60}{I}\cdot q\cdot \gamma$$

Bu formuladagi parametrlar:

- I – avtobuslar harakatlanish intervali (daqiqalarda);
- q – datchiklar yoki texnik pasport orqali tasdiqlangan avtobusning nominal sig‘imi (Andijon shahrida harakatlanuvchi Zhong Tong rusumi uchun o‘rtacha 80 kishi);
- γ – sig‘imdan foydalanish koeffitsiyenti. Shahar sharoitida optimal konfortni ta'minlash uchun me'yoriy koeffitsiyent $\gamma = 0.8$ (pik soatlarda maksimal
- $\gamma = 0.95$) qilib qabul qilinadi.

Muvozanatni saqlash algoritmi va intervallarni optimallashtirish

Muvozanatning matematik sharti bitta qat'iy tengsizlikka tayanadi:

$$W_{soat} \geq Q_{max}$$

ISSN 3030-3907

Ushbu shartdan kelib chiqib, yo‘lovchilar bekatda uzoq qolib ketmasligi uchun talab etiladigan optimal interval (I) topiladi:

$$I=\frac{q\cdot\gamma\cdot 60}{Q_{max}}$$

Belgilangan optimal intervalni uzluksiz ta'minlash uchun marshrutga biriktirilishi lozim bo‘lgan avtobuslar soni (N) reysning aylanish vaqti (t_{ayl}) orqali topiladi:

$$N=\frac{t_{ayl}}{I}=\frac{t_{ayl}\cdot Q_{max}}{q\cdot\gamma\cdot 60}$$

Bu yerda t_{ayl} – bitta avtobusning boshlang‘ich bekatdan chiqib, oxirgi bekatga borib, yana iziga qaytib kelishiga ketadigan jami vaqt bo‘lib, u quyidagicha yoyib hisoblanadi:


$$t_{ayl}=2\cdot t_{harakat}+t_{bekat}+t_{oxirgi}$$

(bu yerda $t_{harakat}$ – toza harakatlanish vaqti, t_{bekat} – oraliq bekatlarda to‘xtab turish vaqti, t_{oxirgi} – oxirgi bekatdagi dam olish va qayrilib olish vaqti).

Natijalar va tahlil. Andijon shahridagi SHI-1 yo‘nalishi misolida yo‘lovchi oqimi va harakat tarkibi sig‘imi o‘rtasidagi muvozanatni tahlil qilish jarayonida bir qator natijalar olindi. Amaldagi yo‘nalish pasportiga ko‘ra, mazkur yo‘nalishda 24 ta katta sig‘imli (80 o‘rinli) avtobuslar harakatlanishi belgilangan. Rejali jadval bo‘yicha ularning qatnov intervali 5 daqiqani tashkil etadi. Tadqiqotning metodologiya qismida keltirilgan W_{soat} formulasiga ushbu ko‘rsatkichlarni (avtobus sig‘imi q=80 ta, sig‘imdan foydalanish koeffitsiyenti γ=0.8) qo‘yib hisoblaganimizda, yo‘nalishning 1 soatlik nazariy tashish qobiliyati jami 832 nafar yo‘lovchini tashkil etishi ma'lum bo‘ldi.

Biroq, ushbu taklif etilayotgan transport sig‘imi real talabga qanchalik mos kelishini aniqlash maqsadida Andijon viloyati transport boshqarmasining ATTO elektron to‘lov tizimi hisobotlari asosida tahlil o‘tkazildi. Tranzaksiya ma'lumotlariga ko‘ra, SHI-1 yo‘nalishida kunning eng tig‘iz ("pik") soatlarida ham o‘rtacha yo‘lovchilar oqimi (Q_{max} 439 kishi/soatni tashkil etmoqda.

ISSN 3030-3907




1-rasm. Soatbay yo‘lovchilar oqimi (ATTO tranzaksiyalar ma’lumoti asosida)

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi harakat tarkibi sig‘imi (832 kishi) haqiqiy yo‘lovchi ehtiyojidan (439 kishi) qariyb ikki barobar yuqori. Ya'ni, "Brutto-shartnoma" asosida byudjetdan moliyalashtirilayotgan avtobuslar eng tig‘iz vaqtlarda ham o‘rtacha 50% gacha bo‘sh holatda harakatlanmoqda.

Shuningdek, Yandex Maps tizimi orqali olib borilgan amaliy kuzatuvlar avtobuslarning intervaldan chiqib ketib, bir-biriga yaqin harakatlanish muammosi mavjudligini tasdiqladi.

Garchand 24 ta avtobus 4.6 daqiqalik intervalni ta'minlashi kerak bo‘lsa-da, amaliyotda avtobuslar bir-biriga yetib olishi oqibatida yo‘nalishning ayrim qismlarida sun'iy bo‘shliqlar yuzaga kelib, haqiqiy kutish vaqti 10-15 daqiqagacha cho‘zilib ketmoqda. Bu holat tarmoqda harakat tarkibi sonining ko‘pligi interval barqarorligini kafolatlamasligini isbotlaydi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Avtobuslarning intervaldan chiqib ketib bir-biriga yaqin harakatlanishi

XULOSA.

Andijon shahri jamoat transporti (SHI-1 yo‘nalishi) misolida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, joriy etilgan "Brutto-shartnoma" tizimida harakat tarkibini taqsimlashda an'anaviy vizual yondashuvlardan voz kechish va qat'iy ravishda ATTO elektron to‘lov tizimi ma'lumotlariga tayanib muvozanat o‘rnatish lozim.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:

- Iqtisodiy nomutanosiblik: Tarmoqda yo‘lovchilar ehtiyojidan qariyb ikki barobar yuqori bo‘lgan (haqiqiy maksimal talab 439 kishi/soat, taklif etilgan sig‘im esa 832 kishi/soat) ortiqcha harakat tarkibi saqlab turilibdi. Bu holat davlat byudjeti xarajatlarining asossiz oshishiga va transport vositalarining samarasiz ekspluatatsiyasiga olib kelmoqda.

- Xizmat sifati: Xizmat ko‘rsatish sifatini pasaytiruvchi va yo‘lovchilar e'tiroziga sabab bo‘luvchi asosiy omil — avtobuslar sonining kamligi emas. Asosiy muammo tarmoqda dinamik dispetcherlik nazoratining yetishmasligi oqibatida yuzaga kelayotgan intervaldan chiqib ketish va kutishning 10-15 daqiqagacha cho‘zilib ketishidir.

Tavsiya: Jamoat transporti tizimi samaradorligini oshirish uchun qat'iy sonli jadvallardan moslashuvchan intervalli boshqaruvga o‘tish zarur. Shuningdek, tarmoqdagi avtobuslar sonini soatbay ATTO tranzaksiyalariga mos ravishda

ISSN 3030-3907

qisqartirish va optimallashtirish davlat moliyaviy resurslarini tejash bilan birga, yo‘lovchilar uchun ham barqaror va qulay qatnovni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-59 son qarori // https://www.lex.uz/uz/docs/-386205?ONDATE2=16.10.2023&action=compare
2. Andijon viloyati transport boshqarmasi ma’lumotlari
3. Vuchic V.R. Urban Transit: Operations, Planning, and Economics. – New Jersey: John Wiley & Sons, 2005. – 644 p
4. Daganzo, C. F. Fundamentals of Transportation and Traffic Operations. – Emerald Group Publishing, 1997
5. Nasirov.I, To‘rboyev.X JAMOAT TRANSPORTI USTUVORLIGINI TA’MINLASHNING MAQBUL TADBIRLARI // JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS Volume–47_Issue-1_February_2024
6. Nurdinov M., G‘anijonov M., Abdupattoyev B. CARGO ON INTERNATIONAL HIGHWAYS REST AREAS FOR CARS //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – S. 302-308.
7. Alijonovich N.M., Zakirovich N.I. ANDIJON SHAHRIDAGI TRANSPORT OQIMLARINING TAHLILI //PEDAGOG. – 2024. – Т. 7. – №. 2. – С. 223-230.

ISSN 3030-3907